

POSSIBILITIES OF CONTINUOUS DIRECTION OF THE YOUNG GENERATION TO PUBLIC WORK CAREERS (FOR EXAMPLE OF PRESCHOOL AND PRIMARY EDUCATION)

Shodiyev N.

Raximqulova M.

Annotation:

This article provides information on how to systematically introduce children to career-oriented knowledge on a program-based basis in preschool and primary education.

Keywords: profession, child, education, school, kindergarten, literacy, science, curriculum, student, sound, pronunciation.

Uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha, boshlang'ich, o'rta (V-VI-VII) va yuqori (VIII-IX) sinflarida yosh avlodni uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan 4 bosqichli dasturning 1-bosqichi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanib, unda tarbiyalanuvchilarni "Kasblar alifbosi" bilan tanishtirib borish, erta kasb-hunarga yo'naltirish ko'zda tutilgan

Shu munosabat bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) pedagoglari jamoasi oldiga "Ilk qadam" tayanch dasturida 2-3 va 3-4 yoshli hamda 4-5 va 5-6 yoshli bolalar o'rganishi ko'zda tutilgan "Nutq? O'qish va savodga tayyorlash" mashg'ulotlarida bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning kasblar to'g'risidagi tasavvur va tushunchalar ko'lamini kengaytirish vazifasi turadi. Jumladan, mazkur dasturning 2-3 va 3-4 yoshli bolalarda "Nutq. Tovush madaniyatini tarbiyalash" mashg'ulotlarida unli (a, e, i, o, o', u) va undosh (m, n, b, p, d, t, k, g, f, v)ni to'g'ri talaffuz etishni mashq qildirish ko'zda tutilgan. Bu esa bog'cha bolalari mazkur tovushlarni to'g'ri talaffuz etishiga erishgan holda ularning imkoniyatlaridan kelib chiqib, MTT atrofida ko'p tarqalgan ayrim unli va undosh tovushlar bilan ataladigan ommaviy ishchi kasblarning nomlari, mehnat qurollarini talaffuz qilish imkoniyati mavjudligidan dalolat beradi. Masalan, 3-4 yoshli bolalar qiynalmasdan talaffuz qiladigan unli tovushlar bilan ataladigan dorixonachi, ovchi, uchuvchi, uzumchi, etikchi (etikdo'z), iqtisodchi kabi kasblarni kiritish mumkin. Undosh tovushlar qatoriga esa m- mahsido'z, muqovachi, muhandis; n- navvoy, naqqosh; b- baliqchi, bichuvchi; p- payvandchi, polizchi; t- tikuvchi, to'quvchi; d- do'ppido'z, dehqon; k- ko'chatchi, kulol; g- gulchi, gilamchi; f- futbolchi va h.k.kasblarni talqin etish mumkin.

"Ilk qadam" tayanch dasturining 4-5 yoshli bolalarga h, k, o', e, r, l, s tovushlarini aniq talaffuz etishni o'rganish barobarida, uning "Lug'at ishi"da bog'cha bolalarining "Oshpaz-pishiradi, enaga-boqadi, sotuvchi-sotadi, quruvchi-quradi, haydovchi-haydaydi" kabi kasblar nomlarini va ularning bajariladigan ishlari bilan tanishtirish ko'zda tutilgan. Katta guruh (5-6 yoshli) bolalar mashg'ulotlarda "s-z, p-f, t-d, l-r, u-o' x-h, k-g" tovushlarni to'g'ri talaffuz etish va ularni farqlashni hamda "Lug'at ishi"da g'isht teruvchi, bo'yoqchi, duradgor, paxtakor, g'allakor, chorvador, tadbirli, sinchkov, saramjon-sarishtalikni o'rganish ko'zda tutilgan bo'lib, bog'cha bolalarini kasblar bilan tanishtirish ko'lamini yanada kengaytirish imkonini yaratadi. Quyida yuqorida qo'llanilgan namunalar keltiriladi:

S-Z: sandiqchi-zargar, sabzavotchi-zardo'z;

P-F: payvandchi-futbolchi, preslovchi-fotograf;

T-D: tikuvchi-dorixonachi;

P-B: pichoqchi-bo'zchi, po'stindo'z-baxmalchi;

L-R: loykash-rassom;

U-O': uchuvchi-o'rmonchi, uzumchi usta-o'ymakor;

X-H: xokkeychi-hisobchi; xumdonchi-hammonchi;

K-G: kutubxonachi-gazlamachi, kassir-gilamchi; va h.k.

I-II sinf ona tili dastur va darsliklarining tahlili, ularda "Tovushlar va harflar"; "Tovushni talaffuz qilamiz va eshitamiz"; "Tovushlar harflar bilan ifodalanadi"; "Unli va undosh tovushlar"; "So'z, so'zning ma'nosi"; "Shaxs, narsa va kasblarning nomini bildiradigan so'zlar"; mavzularini o'rganish jarayonida bog'cha bolalarida kasblar to'g'risida tasavvur va tushunchalarni shakllantirish bo'yicha to'plangan dastlabki tajribalar asta-sekin kengaytirib, chuqurlashtirib borish uchun keng imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi. Jumladan, bog'cha bolalarini unli va undosh tovush (harf)larni talaffuz qilish barobarida ushbu tovush (harf)lar bilan ataladigan kasblar nomlarini, to'g'ri, tushunarli aytib berish, ularning so'z boyligini oshiradi.

I-IV sinflar ona tili fanlari namunaviy o'quv dasturi va darsliklarining bu sohadagi imkoniyatlarini namoyon qilishga ehriyoj katta. Boshlang'ich ona tili ta'limining amaldagi dasturi va darsliklarining kasbga yo'naltirish imkoniyatlarini o'rganish va tahlil qilishda: mashq, matn, hikoya, she'r, maqol, tez aytish va h.k.larda bevosita nomlari tilga olingan kasblar (va mehnat mazmuni); mashqlar matnlarida u yoki bu kasb uchun xarakterli bo'lgan mehnat faoliyat turlari (masalan, nima qilayapti? Tikayapti; nima qildi? Tikdi: nima qiladi? Tikadi); mashqlar matnlarida u yoki bu kasbga doir biron-bir alomat, belgilardan darak beruvchi materiallar mazmunlarini o'quvchilarni kasbga yo'naltirish nuqti nazardan fikrlash asqotadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasblar olami to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarini chuqurlashtirish maqsadida IV-sinf ona tili darslari misolida nomlari tilga olingan ko'plab kasblar (masalan, bog'bon, dehqon, quruvchi, ucuvchi, bo'yoqchi, miskar, shifokor, baliqchi va h.k.) misolida ularni mazkur fanning "So'z va so'z tarkibi", "So'z turkumi", "Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanilishi", "Qaratqich kelishigi", "Tushum kelishigi", "Jo'nalish kelishigi", "Chiqish kelishigi", "Ot yasovchi qo'shimchalar", "Sifat so'z turkumi", "Kishilik olmoshi" va boshqa mavzular. "Sifat yasovchi o'tgan zamon fe'li", "Sifat yasovchi kelasi zamon fe'li", "Harakatni bildiruvchi so'zlar" kabi mavzu va savollariga doir mashqlar, topshiriqlarni bajarishga jalb qilish bo'yicha namunalar ishlab chiqildi.

So'z va so'z tarkibi

135-mashq. So'zlarni o'qing. Har bir so'zni tarkibi jihatidan tahlil qilib, jadvalga joylang.

So'z	O'zak	So'z yasovchi qo'shimcha	So'z o'zgartiruvchi qo'shimcha	O'zakdosh so'zlar
Baliqchi	Baliq	-chi	-	Baliqsiz
Paxtakor	Paxta	-kor	-	Paxtachi
Tarbiyachi	Tarbiya	-chi	-	Tarbiyasiz
Tunukasoz	Tunuka	-soz	-	Tunukachi

"So'z turkumilari"

139-mashq. So'zlarni o'qing. So'roqlar yordamida turkumlarga ajrating.

Nima?	Qanday?	Necha? Nechanchi?	Nima qildi? Nima qilayapti? Nima qilmoqchi?
Dehqon kim?	Mehnatkash		Mo'l hosil olibdi, nihol o'tqazayapti.
Uchuvchi kim?	Dovyurak		Parvoz qiluvchi, uchmoqda, uchayapti

159-mashq. Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanilishi, otlarning egalik qo'shimchalari bilan bog'lanishi.

Tikuvchim Tikuvching Tikuvchi	Tikuvchimiz Tikuvchingiz Tikuvchilari	Do'ppichim Do'ppiching Do'ppichi	Do'ppichimiz Do'ppichingiz Do'ppichilari
Oshpazim Oshpazing Oshpaz	Oshpazimiz Oshpazingiz Oshpazlari	Cho'ponim Cho'poning Cho'pon	Cho'ponimiz Cho'poningiz Cho'ponlari

175-mashq.

Tabib Novvoy Duradgor Kassir	-im	Tabibim Novvoyim Duradgorim Kassirim
---------------------------------------	-----	---

179-mashq. So'zlarni o'qing. Ularga egalik qo'shimchalarining birini qo'shib yozing: baliq-baliqchi, qo'shiq- qo'shiqchi, pilla- pillachi, paxta- paxtakor, o'rmon-o'rmonchi, bichish-tikish-tikuvchi, to'qish-to'quvchi, qurish-quruvchi, iqtisod-iqtisodchi.

No	Kelishiklar	So'rog'i	Qo'shimchalar
1	Bosh kelishigi	Miskar	Sabzavotchi, miskar
2	Qaratqich kelishigi	Kimning?	Sabzavotchining
3	Tushum kelishigi	Kimni?	Sabzavotchini, miskarchini
4	Jo'nalish kelishigi	Kimga?	Sabzavotchiga, miskarchiga
5	O'rin-payt kelishigi	Kimda?	Sabzavotchida, miskarchida
6	Chiqish kelishigi	Kimdan?	Sabzavotchidan, miskarchidan

205-mashq. Berilgan otga mos otlar. Tanlab, birikma tarida yozing.

bitiruvchining	qaychisi	yozuvchining	kitobi
sartaroshning		shoirning	
tunukasozning		o'qituvchi	
bog'bonning		iqtisodchining	

209-mashq. Qaratqich kelishigidagi otga mos otlar topib birikma tuzing va yozing.

ko'zoynagi	o'qituvchining	kabineti	shifokorning
konspekti		Asbobi	
kabineti		diagnozi	
kitobi		muolajasi	

Tushum kelishigi

213-mashq. Berilgan so'zlarga tushum kelishigidagi otni tanlab, birikma shaklida yozing.

devorni	bo'yadi (bo'yoqchi)	temirchini	ishlatadi
eshikni		soatsozni	
ramkani		payvandchini	
gazlamani		ganchkorni	

217-mashq. Berilgan tushum kelishigidagi otga mos fe'llar topib, birikma tuzing va yozing.

Ko'ylagini	bichdi	Quruvchini	o'qitadi
	tikdi		davolaydi
	dazmolladi		rag'batlantiradi
	ta'mirladi		ilhomlantiradi

Jo'nalish kelishigi

227-mashq. Berilgan so'zlarga mos otlar topib, ularni tushum kelishigida qo'llab birikma yozing.

Bo'yoqchi (ning) bo'yog'i,
Rassom (ning) kartinasi, peysaji,
Sabzavotchi (ning) karami,
Quruvchi (ning) binosi.

229-mashq. Berilgan otga mos so'z topib, birikma tuzing.

Cho'ponga	o'tloq	O'ymakorlik	ish joyi
	otar		yog'och
	suv		mehnat qurollari

232-mashq. Berilgan fe'lga mos ot tanlab, birikma tuzing va yozing.

Paxtakorga	bordi	Shaxmatchi	aytdi
Bokschiga		Asalarichi	
O'rmonchiga		Bog'bon	
Dehqonga		Pillakor	

238-mashq. Berilgan fe'lga mos ot topib, birikma tuzing va yozing.

Operator	ishladi	Slesor	Dam oldi
Kutubxonachi		Traktorch	
G'isht teruvchi		Parranda boqar	
Tokir		Tarbiyachi	

Chiqish kelishigi

244-mashq. Berilgan fe'lga mos otlar toping. Uni chiqish kelishigida qo'llab, birikma tuzing va yozing.

To'quvchidan	keldi	Chegarachi	So'radi
Agromondan		Kosmonavtdan	
Novvoydan		Sotuvchidan	
Kuloldan		Shaxmatchidan	
Zargarlik			

Ot yasovchi qo'shimcha

256-mashq. So'zlarga mos so'z yasovchi qo'shimchalarni qo'shib ko'chiring.

Asalari...-chi	G'alla...-kor	Asalarichi	G'allakor
Pilla...-kor	Sabzavot...-chi	Pillakor	Sabzavotchi
Osh...-paz	Chegara...-chi	Oshpaz	Chegarachi
Soat...-chi	Tunuka...-soz	Soatchi	Tunukaso
Suv...-chi	Kasb...-dosh	Suvchi	Kasbdosh
O'yma...-kor	Bo'yoq...-chi	O'ymakor	Bo'yoqchi
Paxta...-kor	Suvoq...-chi	Paxtakor	Suvoqchi
Do'ppi...-do'z	Mis...-kar	Do'ppido'z	Miskar

Sifat so'z turkumi

279-mashq. Berilgan otga mos sifatlar topib, birikma tuzing va yozing.

Ziyrak	O'qituvchi	Chiroyli	Tikuvchi
Ijodkor		Go'zal	
Insonparvar		Ozoda	
Nazokatli		Ishchan	
Aqli		Mahoratli	

303-mashq.

Sifat yasovchi qo'shimchalar		O'tgan zamon fe'li	
Ishchan	Bog'bon	sotuvchi	Sotgan
Mehnatsevar			O'qigan
Adolatli			Gapirgan
Odobli			Bergan
Harakatchan			
Rejali			
Quvnoq			
Talabchan			

400-mashq.

Hisobchi	hisoblayapti
	o'rganyapti
	izlayapti
	o'qimoqda

403-mashq. Mashq matniga qo'shimcha.

Bog'bon o'rik, gilos, olmaga shakl bermoqda. Traktorchilarning mevali daraxtlar atrofini yumshatib, qator oraliqlarini haydamoqda. Bog'bon daraxt shoxlariga dori sepmoqda.

Bolalar sifatli pilla yetishtirish uchun *pillakorlarga* yordam bermoqda. O'simlikshunoslik fermer hasharotlardan saqlash uchun daraxtlarning tanalariga bir tekis qilib ohak surtmoqda. Pilla qurtini boqishda pillakorlarga yordam bermoqda.

Kelasi zamon fe'li

406-mashq. O'qing so'roqlar yordamida fe'llarni topib ayting.

Novvoy nima qilmoqchi?

Xamir tayyorlamoqchi

Tandirni qizdirmoqchi

Tandirga olov yoqmoqchi

Shirmoy non yopmoqchi

413-mashq. Harakatni bildirgan so'zlarni toping. Ularni ega bilan birga ko'chiring.

Biz mashhur *futbolchi* bilan uchrashuvga bormoqchimiz.

Sen nimaga *shaxmatchi* kasbini tanlamoqchimiz.

Mehribonchi-muruvvat uyidagi bolalarga sovg'a qilmoqchi.

Ular O'zbekiston qahramoni rahbarlik qilayotgan *paxtakor* maydonini kuzatdilar. Biz *quruvchilar* qishloqda qurgan zamonaviy uylarda yashayapmiz.

414-mashq. Harakatni bildiradigan so'zlar oldiga kishilik olmoshlaridan mosini qo'yib gaplar tuzish. Fe'lning qaysi shaxs-sonda ekanini ayting.

O'qituvchi aytdi	Yozuvchi yozmoqchi
O'qituvchi aytmoqchi	Yozuvchi yozayapti
O'qituvchi aytasan	Yozuvchi yozayapsan
O'qituvchilar aytmoqchimiz	Yozuvchilar yozayapmiz
O'qituvchilar aytayapsiz	Yozuvchilar yozmoqchisiz
O'qituvchilar aytmoqchilar	Yozuvchilar yozmoqdalar

416-mashq. O'quvchilar dorivor o'simliklar: terayapti-farmatsevt.

422-mashq. Biz yerni sabzavot ekish uchun tayyorladik-sabzavotchi.

434-mashq. "Sharq jannati" deb atalgan bog'lar. Siz ham yangi bog' yaratishga o'z hissangizni qo'shing-bog'bon.

438-mashq. Har bir so'zga so'roq bering.

Gulchi kim? Suvchi kim?

439-mashq. Foydali qush olma daraxtini zararkunandalardan tozalamoqchi-*entimolog*.

451-mashq. Non qachon paydo bo'lgan? -*novvoy*

455-mashq. *Miskar, tunukasoz, kosib, chegarachi*

456-mashq. Nuqtalar o'rniga zarur unli harf qo'yib yozing. -ag...nom-agronom, k...mandir-komandir, avtom...b-avtomobil (shofyor).

435-mashq. Matn mazmunini kasb tanlash nuqtai nazaridan fikrlash. Iqtisodiy bilimga ega bo'lmagan odam ham or: dar. a raladi: iqtisodchi.

451-mashqda asosan non-*novvoy*.

452-mashq. Topshiriq. Javob: *paxta terish mashinasi haydovchisi, mexanik*

453-mashq. O'zbekiston suv havzalari, ko'llari haqida so'z yuritilgan. Bu yerda asosiy belgi suv, unga qarab suvda baliq yashaydi. Shu bois *baliqchi* kasbi.

454-mashq. Asosiy belgi o'tloq va suv-chorva mollari boqilishi mumkin bo'lgan maskan-chorvador.

465-mashq. Nuqtalar o'rniga zarur unli harf qo'yib yozing. Uning aytilishi va yozilishida farqni izohlang.

Sam...viy-samoviy (uchuvchi), avtom...bil-avtomobil (shofyor, haydovchi), m...tor-motor (motorchi), agr...nom-agronom, huq...q-huquqshunos (yurist).

Ona tili darslarida bayon qilingan kasblarni alifbo tartibida yozib chiqing: o'rmonchi, shifokor, tikuvchi, bog'bon, traktorchi, paxta terish mashinasi haydovchisi, paxtakor, issiqxona operatori, tunukasoz, misgar, chilangar, asalarichi, quruvchi, duradgor, arxeolog, baliqchi, yozuvchi, g'allakor, shaxmatchi, oshpaz, bo'yoqchi, to'quvchi, cho'pon, farmatsevt (dori tayyorlovchi), sabzavotchi, pillakor, hisobchi, iqtisodchi, chegarachi, uchuvchi, motorchi, jarroh, naqqosh, rejissyor, nazoratchi.

470-mashq. Bir xil undoshli so'zlarning yozilishini yodingizda tuting va ular bilan bog'liq kasblar nomini yozing.

Pilla-pillakor
Chaqqon tennischi
G'ijjak-g'ijjakchi

Mo'tal-chilangar, tunukasoz,
Kaseta-radiotexnik, elektronchi

Shunday qilib, yuqorida bayon qilinganlar boshlang'ich sinf o'quvchisini o'simlikshunoslik, chorvachilik, qurilish, tibbiyot, tikuvchilik, to'quvchilik va h.k. sohalarga doir kasblar haqidagi bilimlar bilan muntazam ravishda tanishtirib borish mazkur kasblar nomlarining ular xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga imkon beradi.

O'quvchilarning "Kasblar olami (o'simlikshunoslik, chorvadorlik, qurilish, tibbiyot, tikuvchilik va to'qimachilik va h.k. sohalar)" to'g'risidagi bilimlarini kengaytirish barobarida ularning xotirasida mazkur bilimlar uzoq vaqt saqlanib qolishiga imkon beradi.